



CENTRALLY MANAGED INDUSTRY: THE EXPERIENCE OF THE UZBEK SSR (1945–1960S)

Jasur Qurolov

4th-year student, Faculty of History

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: industrial management, Council of National Economy, economic region, territorial industry, sectoral management, centralized management, Uzbek SSR.

Received: 04.05.26

Accepted: 05.05.26

Published: 06.05.26

Abstract: This article analyzes the formation and functioning of the centrally managed industrial system of the Uzbek SSR. It examines the dominant role of union-level authorities in managing the republic's industry during the Soviet period, the main mechanisms of the planned economy, and the limited powers of local administrative bodies. In addition, the article highlights the raw-material orientation of industrial development, the weak development of processing industries, and the socio-economic consequences of this situation.

MARKAZDAN BOSHQARILGAN SANOAT: O'ZBEKISTON SSR TAJRIBASI (1945-1960-YILLAR)

Jasur Qurolov

O'zMU Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sanoat boshqaruvi, xalq xo'jaligi kengashi, iqtisodiy rayon, hududiy sanoat, tarmoq boshqarmasi, markazlashtirilgan boshqaruv, O'zbekiston SSR.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston SSR sanoatini markazdan boshqarish tizimining shakllanishi va faoliyat yuritish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Sovet davrida respublika sanoatini boshqarishda ittifoq miqyosidagi idoralarning ustun mavqei, reja iqtisodiyotining asosiy mexanizmlari hamda mahalliy boshqaruv tuzilmalarining cheklangan vakolatlari ochib beriladi. Shuningdek, sanoat rivojining xom ashyo yo'nalishiga qaratilgani, qayta ishlash tarmoqlarining sust rivojlanishi va mazkur

holatning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yoritib o‘tiladi.

ЦЕНТРАЛИЗОВАННО УПРАВЛЯЕМАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ: ОПЫТ УЗБЕКСКОЙ ССР (1945–1960-Е ГОДЫ)

Жасур Куролов

Студент 4 курса исторического факультета
Национального университета Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Управление промышленностью, Совет народного хозяйства, экономический район, территориальная промышленность, отраслевое управление, централизованное управление, Узбекская ССР.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности формирования и функционирования централизованной системы управления промышленностью Узбекской ССР. Рассматривается доминирующая роль союзных органов в управлении промышленностью республики в советский период, основные механизмы плановой экономики, а также ограниченные полномочия местных органов управления. Кроме того, освещается сырьевая направленность развития промышленности, слабое развитие перерабатывающих отраслей и социально-экономические последствия данного процесса.

Kirish. Sovet davrida barcha sohalar singari sanoat boshqaruvi va uning rivojlanishi kommunistik partiya rahbariyati tamonidan belgilangan. Sotsialistik xo‘jalikni tashkil, etish xalq xo‘jaligini rejalashtirish, komunistik qurulishning barcha bosqichlarida iqtisodiyotni boshqarishning tashkiliy usullari bilan bog‘liq holda olib borildi. Natijada ittifoq tarkibiga kiruvchi respublikalar xo‘jaliklarini yagona tizimga solgan davlat xo‘jaligi tuzildi va markaz tamonidan boshqarildi.

Adabiyotlar sharxi. Sotsializmning iqtisodiy negizini sotsialistik mulk tashkil etdi. Mulk asosidagi yirik sotsialistik ishlab chiqarish xalq xo‘jaligi miqiyosida tashkil etildi. Markazdagi rahbariyat esa xo‘jalik tarmoqlari rivojini taminlashni mamlakat miqiyosida talab etgan edi. Bu haqida kommunistik partiya asoschisi V.I.Lenin shunday degan edi: “Davlatning butun iqtisodiy mexanizmini birlashgan katta mashinaga, yuz millionlarcha kishilarni bir reja bilan ishlaydigan bir xo‘jalik organizmiga aylantirish kerak” [1].

Dastlabki yillarda ishlab chiqilgan markazlashtirilgan boshqaruv tizimi urush yillarida harbiy maqsadlarda kuchaytirildi. Urushdan keyingi tiklanish jarayonlarida ham bu tizim o‘z

ahamiyatini yo‘qotmadi. 1945-1956 yillarda ham xalq xo‘jaligi tarmoqlari umumittifoq va ittifoq-respublika xalq komissarliklari orqali boshqarilgan. Ular o‘z navbatida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bilan birga yangi sanoat tarmoqlarini vujudga keltirishda muhim rol o‘ynagan [2].

Muhokama va natijalar. 1950-yillarning o‘rtalariga kelib markazlashtirilgan sanoat boshqaruv tizimidagi ichki ziddiyatlari yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Xalq xo‘jaligini qat‘iy ma‘muriy-buyruqbozlik usullari asosida boshqarish sanoat tarmoqlarining samaradorligini pasaytirib, ishlab chiqarishda tashabbuskorlik va mosla- shuvchanlikni cheklab qo‘ydi. Markaz tomonidan belgilangan rejalar ko‘plab hollarda hududiy hususiyatlar, xomashyo bazasi va mehnat resurslari imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmadi.

Ittifoq tarkibidagi respublikalarda, jumladan O‘zbekiston SSRda sanoat korxonalarining faoliyati bilan bog‘liq muammolar kuchaydi. Korxonalar bevosita markaziy vazirliklarga bo‘ysungani sababli ularning moddiy-texnika ta‘minoti, kadrlar masalasi va ishlab chiqarishni kengaytirish masalalarida ko‘plab muvofiqlashtirish qiyinchiliklari yuzaga keldi. Natijada ishlab chiqarish jarayonlarida kechikishlar, resurslardan samarasiz foydalanish va reja topshiriqlarining bajarilmasligi holatlari kuzatildi. Keyingi yillarda xalq xo‘jaligini boshqarishning amaldagi tizimini qayta ko‘rib chiqish masalasi Kommunistik partiya rahbariyatining muhim siyosiy-iqtisodiy vazifa- laridan biriga aylandi. Markaziy vazirliklar orqali boshqariladigan sanoat tizimini takomillashtirish, hududiy boshqaruv organlari vakolatlarini kengaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari partiya darajasida muhokama qilina boshlandi.

KPSS 1956-yil sentabr pleniumidan keyin sanoatni boshqarishda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bunda sanoat boshqaruvining hududlar kesimiga o‘tilishi bilan korxonalarining huquqlarini kengaytirish tamoyilini rivojlantirishga sabab bo‘ldi. Yangi tizim sanoatni boshqarish uchun hududlar kesimida Vazirliklar tashkil etdi. Vazirlik tashkilotlari sanoat korxonalari ish tartibini tuzish ishchilarga maosh berish ishlab chiqarish rejalarini tuzish bilan shug‘ullanardi. Bu tashkilotlarga sanoat korxonalari va institutlar bo‘ysundirilgan edi. Vazirlik tashkilotlari markaziy hokimiyatga bo‘ysundirilib, Vazirlikning o‘zi ham bir nechta bo‘limlarga bo‘lingan va ular bir biridan bir necha chaqirim uzoqlikda joylashgan. Bu o‘z o‘zidan ruhsat olishning bosqichlarini ko‘payib ketishiga olib keldi. Bunday holat ishlab chiqarish zavodlari va qurilish ishlariga salbiy ta‘sir o‘tkazdi. Ko‘p holatlarda zavodlarga xom ashyo vaqtida yetib kelmasdi yoki ishlab chiqarilgan mahsulot vaqtida jo‘natilmas edi. Bu jarayonlar ko‘p sohalarda ishning bir me‘yorda ketishiga to‘sqinlik qilardi.

1957-yil O‘zbekiston SSR sanoat va qurilishiga 28 ta ittifoq, 17 ta ittifoq-respublika va 5 ta respublika vazirlik rahbarlarik qilgan. O‘zbekistondagi 8 ta ittifoq respublika va sanoat

vazirliklari hamda markaziy apparatlarda 79 ta boshqaruv bo'limlari, 52 ta o'rta bo'limlar, 383 ta ta'minot va tayyorlov tashkilotlari bor edi. Ulardagi boshqaruv apparatlarida esa 6 mingta mansabdor ishlar edi [3].

Korxonalar faoliyatida tashabbuskorlikni kuchaytirish ko'zda tutilgan bo'lsada, real sharoitda ularning mustaqilligi cheklangan holda qoldi. Iqtisodiy qarorlar qabul qilishda tarmoq vazirliklari va markaziy apparatlarning ustuvor roli saqlanib qoldi, bu esa hududiy ehtiyojlar bilan umumittifoq rejalari o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishiga olib keldi. Sanoatni boshqarishda mas'uliyatning aniq chegaralanmaganligi va vakolatlarning tarqoqligi yuzaga chiqdi. Boshqaruvning haddan tashqari markazlashgan va ayni paytda murakkab tuzilmasi ishlab chiqarish jarayonlarini tezkor boshqarish imkonini bermas edi. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida ishlab chiqarishni joylarda muvofiqlashtirish, xo'jalik aloqalarini soddalashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati tobora dolzarb bo'lib bordi. Tarmoq vazirliklari orqali boshqarish o'rniga hududiy tamoyilga asoslangan xo'jalik organlarini joriy etish g'oyasi ilgari surildi. Bu yondashuv sanoat va qurilish korxonalarini bir hudud doirasida yagona boshqaruv ostiga birlashtirish, ishlab chiqarish va ta'minot zanjirlarini qisqartirish hamda byurokratik to'siqlarni kamaytirishga qaratilgan edi.

Shunday qilib 1957-yilda SSSR Oliy Sovetining yettinchi sessiyasi "Sanoat va qurilishni boshqarishni tashkil etishni yanada takomil- lashtirish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Shu hujjatga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti qabul qilgan qonunga asosan respublika hududida Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Qoraqalpog'iston iqtisodiy-ma'muriy rayonlari tashkil etildi [4]. Bu iqtisodiy rayonlarning har birida O'zbekiston SSR hukumatiga bo'ysunadigan xalq xo'jalik kengashlari tuzildi.

Toshkent, Farg'ona, Samarqand iqtisodiy rayonlarida xalq xo'jalik kengashlari sanoat korxonalariga tarmoq boshqarmalari orqali bevosita rahbarlik qildi. Tarmoq boshqarmalari O'zbekiston Kompartiyasi MK va O'zbekiston SSR hukumatining qaroriga ko'ra tashkil etilib, u xalq xo'jaligi kengashi tarkibiga kiritildi va o'z faoliyatida SSSR va O'zbekiston SSR qonunlari asosida ish yuritdi [5]. Qoraqalpog'iston iqtisodiy rayonida xalq xo'jaligi tuzilmadi va sanoat korxonalarini to'g'ridan to'g'ri xalq xo'jaligi kengashlariga bo'ysundirildi.

1957 yilda qabul qilingan mazkur qonun respublika sanoatini boshqarishda tub burilish yasadi va hududiy tamoyilga asoslangan yangi boshqaruv mexanizmini shakllantirdi. Xalq xo'jaligi kengashlari orqali sanoatni boshqarish ishlab chiqarishni joylarga yaqinlashtirish, xo'jalik aloqalarini soddalashtirish hamda korxonalar faoliyatida tezkorlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Amaliyotda bu tizim sanoat korxonalarining kundalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsata boshladi.

Yangi boshqaruv tuzilmasi sharoitida sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari faoliyati hududiy iqtisodiy rayonlar doirasida muvofiqlashtirildi. Bu esa xomashyo bazasi, transport imkoniyatlari va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash imkonini berdi. Ayniqsa, tarmoq boshqarmalari orqali sanoat korxonalariga rahbarlik qilish ishlab chiqarish jarayonlarini bir maromda tashkil etishga xizmat qildi. Hududiy boshqaruv tizimining joriy etilishi sanoat tarmoqlarining hududiy notekis rivojlanishini aniqlash va bartaraf etish masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Ayrim iqtisodiy rayonlarda sanoat salohiyati yuqori bo'lgan bo'lsa, boshqalarida ishlab chiqarish ob'ektlari kam joylashgan edi. Bu holat yangi tashkil etilgan xalq xo'jaligi kengashlari oldiga hududiy sanoat siyosatini qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ydi.

1957 yil oxiri 1958 yil boshlarida respublika miqyosida iqtisodiy rayonlar chegaralarini aniqlashtirish va boshqaruvni yanada moslashuvchan qilish zarurati yuzaga keldi. Ayrim hududlarda sanoat korxonalarining ko'payishi, yangi qurilish ob'ektlarining paydo bo'lishi mavjud xalq xo'jaligi kengashlari imkoniyatlarini kengaytirishni yoki yangi boshqaruv organlarini tashkil etishni taqozo etdi. Bu jarayon, ayniqsa, sanoatlashuv sur'atlari tezlashayotgan hududlarda yaqqol sezildi. Natijada 1958-yilning yanvar oyida beshinchi iqtisodiy rayon tashkil etilishi bilan Buxoro xalq xo'jaligi kengashi tuzildi [6].

Har bir xalq xo'jaligi kengashi tuzilmasida muayyan iqtisodiy-mamuriy rayondagi sanoatning hususiyatlariga muvofiqlikni taminlash ko'zda tutilgan edi. Shu sababli iqtisodiy-mamuriy rayonlarning hususiyatlaridan kelib chiqib, xalq xo'jalik kengashlari tarkibida tarmoqlar boshqarmasi tuzilgan. Xalq xo'jaligi kengashlarining tuzilmasi hududiy sanoatning ishlab chiqarish yo'nalishlari va xo'jalik aloqalariga moslashtirilgan holda shakllantirilgani sanoatni boshqarishda yangi yondashuvni yuzaga keltirdi. Tarmoq boshqarmalarining iqtisodiy-mamuriy rayonlar hususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi hamda hududiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Qoraqalpog'iston iqtisodiy-mamuriy rayoni xalq xo'jaligi kengashi bir bosqichli, yani xalq xo'jaligi kengashi – korxonalar tarzida tashkil qilinib, sanoatni boshqarishning hududiy tamoyil asosida tashkil etish namunasi bo'ldi. Bu iqtisodiy rayonda xalq xo'jaligi kengashi bilan korxonalar o'rtasida oraliq bo'g'inining yo'qligi rahbarlikni bevosita korxonaga yaqinlashtirdi [7]. Bu holat sanoat korxonalarining kundalik faoliyatida operativlikni kuchaytirib, ishlab chiqarish masalalarini joyida hal etish imkonini berdi.

Biroq respublika miqyosida xalq xo'jaligi kengashlarining turli tuzilmalarda faoliyat yuritishi sanoatni boshqarishda yagona yondashuvning yo'qligini yuzaga chiqardi. Ayrim iqtisodiy rayonlarda ko'p bosqichli boshqaruv tuzilmalari saqlanib qolgan bo'lsa, boshqalarida

bir bosqichli model joriy etildi. Natijada sanoatni boshqarishda uslubiy tafovutlar kuchayib, xo'jalik aloqalarini respublika darajasida muvofiqlashtirish murakkablashdi. Hududiy xalq xo'jaligi kengashlari o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarini muvofiqlashtirish, yirik sanoat loyihalarini umumrespublika miqyosida rejalashtirish va resurslarni taqsimlash masalalari tobora dolzarb bo'lib bordi. Ba'zi hollarda iqtisodiy rayonlar manfaatlari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelib, bu holat markazlashgan muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini keltirib chiqardi. Respublika sanoatini boshqarishda hududiy mustaqillik va markazlashgan muvofiqlashtirish o'rtasida muvozanatni ta'minlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Xalq xo'jaligi kengashlari faoliyatini yagona siyosat asosida birlashtirish, sanoat rivojining strategik yo'nalishlarini respublika miqyosida belgilash hamda hududlararo xo'jalik aloqalarini mustahkamlash zarurati yuzaga keldi.

Mazkur ehtiyojlar natijasida 1960 yilga kelib O'zbekiston SSR yagona xalq xo'jalik kengashi tashkil qilindi [8]. Bu qaror hududiy xalq xo'jaligi kengashlari faoliyatini umumrespublika darajasida muvofiqlashtirish, sanoatni boshqarishda yagona tashkiliy va metodik yondashuvni joriy etish hamda hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan edi. Shu tariqa, Qoraqalpog'iston iqtisodiy-ma'muriy rayoni tajribasi bilan boshlangan soddalashtirilgan boshqaruv modeli respublika miqyosida sanoatni boshqarishni markazlashtirishga bo'lgan yangi ehtiyojlarning shakllanishiga muhim omil bo'ldi.

1945-1960-yillarda O'zbekiston SSRning sanoat boshqaruvi tizimi markazlashtirilgan mexanizmdan hududiy boshqaruv modellari tomon o'tdi. Urushdan keyingi tiklanish davrida qabul qilingan qarorlar orqali iqtisodiy-ma'muriy rayonlar va xalq xo'jaligi kengashlari tuzildi, bu korxonalar faoliyatini joylarda muvofiqlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashga xizmat qildi. Turli iqtisodiy rayonlardagi boshqaruv tuzilmalarining xilma-xilligi 1960 yilda yagona xalq xo'jaligi kengashini shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi, bu esa xo'jalik aloqalarini umumrespublika darajasida muvofiqlashtirishga asos yaratdi.

O'zbekistondagi xalq xo'jaligi kengashi ham 100 dan ortiq sanoat tarmog'iga ega bo'lgan 1500 dan ortiq korxonani birlashtirgan holda ish olib bordi. Bunday haddan tashqari markazlashtirib rahbarlik qilish ham dastlabki yillardanoq hayotda o'zining salbiy tomonlarini ko'rsatdi. Xususan, 1962 yilda esa 404 ta sanoat korxonasidan 36 tasi yillik rejani bajarmagani oqibatida 15 mln. rubl miqdorida mahsulot yetkazib berilmadi [9].

Bugungi iqtisodiy holatni tahlil qilganda, ushbu tarixiy boshqaruv tajribasi hozirgi sanoat muammolarining ildizini ochishda muhim pedagogik maydon vazifasini o'tamoqda. Bir tomondan, hozirgi O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi sezilarli darajada oshib, eksport va

import dinamikasi ham faollashib bormoqda. Masalan, 2025 yilda eksport hajmi 33,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, import hajmidan past bo'lishiga qaramay, import miqdori ham yuqori darajada qolib 41,9 mlrd dollar atrofida qayd etildi [10]. Bu yuqori import hajmi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va iste'mol ehtiyojlari uchun tashqi bozorga qaramlikni ko'rsatadi.

Zamonaviy tizim asosida importning katta qismi mashina va transport asbob-uskunalari, sanoat tovarlari hamda kimyoviy mahsulotlar kabi texnologik va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, chet el texnologiyalariga qaramlikni mustahkamlab kelmoqda [11]. Bu holat ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi, ammo ayni paytda mamlakat ichida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'picha sifat jihatdan yuqori bo'lmaganligi, eksport uchun esa yuqori sifat talab qilinadigan tovarlar yetkazib berilishi, ichki bozor mahsulotlarining esa nisbatan kam sifatli va arzon bo'lishi muammosi mavjud. Bu holat milliy sanoatning global bozorga raqobatbardoshligini cheklaydi va ichki qayta ishlab chiqarish salohiyatini susaytiradi.

Qayta ishlab chiqarish sustligi ham sezilarli muammo sifatida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonlarini yangilash va texnologik modernizatsiya talab etiladi, biroq import texnologiyalariga bog'liqlik eski markazlashgan hududiy boshqaruv tizimlarining tarixi bilan izohlanadigan koordinatsiya murakkabliklarini aks ettiradi.

1945-1960-yillardagi boshqaruv tajribasi hududiy boshqaruv organlari va markaziy muvofiqlashtirish mexanizmlari o'rtasidagi muvozanat zaruriyatini ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi sharoitda bu muvozanat sifati va miqdorini oshirish orqali mustahkamlash ehtiyoji dolzarbligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, chet el sarmoyasining sanoat va qurilish sohasidagi ishtiroki O'zbekistonning rivojlanish jarayonlarini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi, lekin shu bilan birga milliy ishlab chiqarish bilan chet el resurslarini muvofiqlashtirish, texnologik mustaqillik va ichki bozor salohiyatini oshirish masalalarini ham kuchaytiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sovet davridagi boshqaruv tizimi tajribasi hozirgi kundagi sanoat siyosatini shakllantirishda, sifatni oshirish, tashqi qaramlikni kamaytirish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'nalishlarida muhim ilmiy hamda amaliy fundament bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lenin V.I. Tanlangan asarlar. 27-jild. – B. 79.
2. Xaydarov I. O'zbekiston sanoatining sovet ittifoqi yagona xalq xo'jaligi kompleksidagi o'rni. – Toshkent, 2019. – B. 45-50.

3. Очерки истории коммунистической партии Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 1964. – С. 434.
4. Muhiddinov N.A. O‘zbekiston SSRda sanoat va qurilishni boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. – Т.: O‘zdavnashr, 1957. – В. 4-22.
5. O‘zbekiston MDA. 2384-fond, 1-ro‘yhat, 16-ish, 6-varaq.
6. Агзамходжаев А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т.: Фан. 1971. – С. 238.
7. Rudin A. O‘zbekiston sanoatini boshqarishni qayta qurishdagi vazifalar // O‘zbekiston komunisti. 1957. – В. 11-16.
8. Агзамходжаев А. Образование и развитие Узбекской ССР. – Т.: Фан, 1971. – С. 238.
9. O‘zbekiston MDA. 2384-fond, 1-ro‘yxat, 1025-ish, 2-varaq.
10. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-market-overview>
11. https://www.lloydsbanktrade.com/en/market-potential/uzbekistan/trade-profile?utm_source.com.